
XORAZMLIKLAR OLTIARIQ TAJRIBASINI O'RGANMOQDA

Xorazm viloyati hokimining o'rinbosarlari Murod Ochilov va Komiljon Sabirov boshchiligida Shovot, Qo'shko'pir, Yangibozor, Bog'ot va Yangiariq tumanlari hokimlari Oltiariq tumanida bo'ldilar



Mehmonlar tumanda bog'dorchilik va uzumchilik sohalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, tumandagi ming gektar adirlikda tashkil etilgan uzumchilik va bog'dorchilik plantatsiyasi bilan tanishdilar.

Avvallari bu joy hech narsa ekilmagan quruq yerga suv ta'minoti yetarli yo'lga qo'yilgani, tik sug'orish quduqlari qazilgani, suv hovuzlari barpo etilgani, tomchilab sug'orish tizimi joriy etilib nasoslar o'rnatilgani va elektr tarmog'i tortilgani delegatsiya ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.



O'zlashtirilgan maydonlarning 560 gektarida beton ustunlar o'rnatilib, tokzor barpo etildi, "xusayni", "kelinbarmoq", "rizamat", "kishmish" kabi xaridorgir uzum navlari ekildi. Bu uzumzorlar aholiga 25 sotixdan 25 million so'mlik 7 yillik imtiyozli kredit asosida bo'lib berilmoqda. 300 gektarlik intensiv bog'da esa olma, gilos, o'rik ko'chatlari o'tqazilmoqda. Qator oralariga tarvuz ekilgan. Bozor talabiga qarab, qalampir, bulg'or qalampiri, bodring, ko'katlar va boshqa poliz mahsulotlari yetishtirilayotgani xorazmliklarda katta qiziqish uyg'otdi.

Xorazm viloyati hokimining o'rinbosarlari Komiljon Sabirovning ta'kidlashicha, o'zlashtirilmagan yerlarni o'zlashtirish, Oltiariq tajribasini Xorazmda ommalashtirish va dehqonchilikdagi katta tajribani o'rganish maqsad qilingan mazkur tashrifdan delegatsiya ishtirokchilari bir qator ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-14 16:03:43